


MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



Suleymanov R.H., Shonazarov Sh.B.

NUMIZMATIKA

0zb.2
737
S-87

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Suleymanov R.H., Shonazarov Sh.B.

NUMIZMATIKA

70220401-Arxeologiya bakalavriat ta'lif yo'naliishi talabalari uchun

DARSLIK



O'zMU
TARIX
FAKULTETI
ARM

Toshkent
“Fidokor Yosh Avlod”
2023

UDK:737(075)

KBK: 63.2ya73

S.96

Numizmatika [Matn]: darslik / R.H. Suleymanov

Sh.B.Shonazarov. -Surxondayo: Fidokor Yosh Avlod, 2023.-140 b.

Tarixiy manbalar orasida tangalar alohida o'rni egallaydi. Ular boshqa manbalarga nisbatan ko'proq informativligi bilan ajralib turadi. Tangalar davlatlarni shakllanish va rivojlanish jarayonlarini, ularning chegaralarini, shohlarning nomlari va hukumronlik qilgan yillardini, davlat masifikasini, xalqaro madaniy va iqtisodiy aloqalarni, tabiatini, aholisini, qishloq xo'jaligini, hunarmandchilik sohalarini, quroq-yarog' tarixini, kiyim-boshlarini o'rganishda muhim mazmun kasb etadi. Turli tarixiy va arxeologik yodgorliklarni "yoshini" aniqlashda ham tangalar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab etishga ko'maklashish va dunyo mijyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

Ushbu darslik fan haqidagi bilimlarni qaror topshirish mavjud ilmiy adbiyorlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, kadrlar buyurtmачilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu darslik arxeologiya ta'lim yo'nalishi talabalari va magistrлari uchun mo'ljalangan.

UDK:737(075)

KBK: 63.2ya73

S.96

Taqrizchilar:

Ochildev F.B. – O'zMU tarix fakulteti "Arxeologiya" kafedrasи mudiri,
dotsent, t.f.n.

Xoliqova R.E. – I. Karimov nomidagi TDTU "O'zbekiston tarixi va
huquq" kafedrasimudiri, t.f.d.

ISBN: 978-9943-9117-4-1

© "Fidokor Yosh Avlod" nashriyoti, Toshkent, 2023-y

MUNDARIJA**Betlar**

KIRISH.....	4
1. Numizmatika fani va uning vazifalari.....	5
2. Qadimgi Yunoniston va Rim tangalari.....	14
3. Qadimgi Sharq tangalari.....	18
4. Eron sosoniylari va sosoniy kushonshohlar tangalari.....	23
5. Qadimgi Xitoy tangalari.....	26
6. Qadimgi davr O'zbekiston tangalari.....	31
7. Ilk o'rta asrlarda O'zbekiston hududida tovar-pul munosabatlari...	41
8. Arab xalifaligi. Ilk xalifalik tangalari. Somoniylar davri tangalari.	55
9. XI-XIII asrlarda Movarounnahr tangalari.....	61
10. XIII-XVI asrlar tangalari.....	67
11. XVI-XVIII asrning birinchi yarmida zarb qilingan tangalar.....	71
12. XVIII asrning 2-yarmi – XX asrning oxirida zarb qilingan xonliklar tangalari.....	78
13. Glossariy.....	101
14. Ilovalar.....	102
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	138

Kirish

O'rta Osiyo tangashunoslik ilmi (ilmi maskukot) dagi o'z kamtarona ishlarim samarasi uchun undan hamisha minnatdorman. Mixail Evgenievich Masson O'rta Osiyo tangashunosligi bo'yicha maxsus darslik yaratgan birinchi olim bo'lib, uzoq muddat mobaynida (1935-1965) uning o'zi talabalarga tahsil berdi. Afsuski, olimning bu darsligi kitob holida chop etilmay qolib ketdi, shunga qaramay, O'rta Osiyolik olimlarning bir necha avlodni faqat shu darslik orqali tangashunoslik ilmidan voqif bo'lilar.

akad. E.V. Rtveldadze

Tarix fani millatning ma'naviy qadriyatlarining tiklanishida, o'tmishdagi va hozirgi kunda yuz berayotgan tarixiy voqealarni xolis va haqqoniy yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Katta yoki kichik millat bo'lishidan qat'i nazar, har bir millatning o'z tarixiy yo'li va jahon madaniyatiga qo'shgan hissasi bo'ladi. Hozirgi davrda olib borilayotgan oshkoraliq va demokratik siyosat o'tmishdagi tarix va milliy masalada yo'l qo'yilgan xatolarga barham berilmoqda, har bir millatning o'z tarixini to'g'ri yoritish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Bugungi kunda yosh avlodni chuqr bilimga va ma'naviy dunyosi keng qarmovli bo'lishi uchun tarixiy bilimlarni boyitishda tangashunoslikning ilmiy-nazariy bilimlarini o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Numizmatika - tarix fanining tarmoqlaridan biri bo'lib, u tarixiy voqealarni qayta tiklash uchun eng aniq ma'lumotlarni taqdim etadi. Numizmatik manbalar amalda hujjatli manbalardir; ularni ishlab chiqish, to'plangan materialni tizimlashtirish va tahlil qilish, ishonchli ma'lumotlar olish imkoniyatini yaratadi, shu jumladan, yozma manbalarda va o'tmishdan qolgan boshqa yodgorliklarda o'z aksini topa olmagan masalalar bo'yicha ham ma'lumot olish imkonini beradi.

Tariximizni o'rganishda tangashunoslik fanining ahamiyati beqiyosdir. Tangalar bizga eramizdan avvalgi davrdan hozirgi kungacha bo'lib o'ttan tarixiy voqealar, siyosiy-iqtisodiy, ayrim hollarda esa millatlarning e'tiqodi, dunyoqarashlari haqida ma'lumot beradi. Tangalar - davlatning iqtisodiy qudratini ifoda etgan qadimiy ramzdir. Ulardagi

tasvirlar davlatning, uning hukmdorlarining tarixi haqida ko‘p ma’lumotlar beradi.

Tarixiy manbalar orasida tangalar alohida o‘rin egallaydi. Ular boshqa manbalarga nisbatan ko‘proq informativligi bilan ajralib turadi. Tangalar jamiyat hayotining turli tomonlarini yorituvchi ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Ayniqsa, insoniyat tarixi va madaniyatni qadimgi davrlardan boshlab hozirgi kunga qadar bo‘lgan tarixini o‘rganishda tangalarning ahamiyati beqiyosdir. Tangalar davlatlarni shakllanish va rivojlanish jarayonlarini, ularning chegaralarini, shohlarning nomlari va hukmronlik qilgan yillarini, davlat mafkurasini, xalqaro madaniy va iqtisodiy aloqalarni, tabiatini, aholisini, qishloq xo‘jaligini, hunarmandchilik sohalarini o‘rganishda muhim mazmun kasb etadi.

Hozir O‘zbekiston numizmatikasi turli tarixiy davrlarga oid bir necha 100 mingdan ortiq tangalar kolleksiyasiga ega. Beباho boylik hisoblangan bu tangalar xalqimizning teran tarixi, yuksak va shu bilan birga o‘ziga xos bo‘lgan madaniyatini, ma’naviy dunyosini o‘rganishda katta ahamiyatga egadir. Hozir xalqimizning o‘z tarixiga, ayniqsa o‘zbek davlatchiligi tarixiga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Ana shunday paytda bu davrga oid turli tarixiy materiallarni taqchilligini hisobga olib ularning ma’lum darajadagi numizmatik ma’lumotlar asososida ushbu darslikda yoritishga harakat qilingan.

1-Mavzu. Numizmatika fani va uning vazifalari

Tangashunoslik tarix ilmining eng murakkab qismidir: qadimiy tangalarning asl qimmatini belgilash, ularning tarixiylik xususiyatlarini ochib berish uchun arxeologiya, antropologiya, madaniyat va din tarixi, tilshunoslik, hatto matematika singari talay ijtimoiy, ilmiy bilimlarga ega bo‘lish taqozo etiladi.

akad. E. V. Rtveldaze

Reja:

1. Numizmatika asoslari fani va uning vazifalari. Numizmatikaning paydo bo‘lishi va uning fan sifatida rivojlanishi.
2. O‘zbekistonda numizmatika fanining shakllanishi va rivojlanishi. Bugungi kunda O‘zbekiston numizmatikasi oldida turgan vazifalar va muammolar.

3. Tangalar paydo bo'lganicha turli xalqlarda ayrboshlash vositasi bo'lib xizmat qilgan narsalar. Tanga sifatidagi ayrboshlash vositasi zarurati paydo bo'lishining asosiy sabablari. Tanga pullardan asrlar davomida almashtirish vositasi sifatida foydalani kelinishning sabablari.
4. Numizmatikaning asosiy tushunchalari va kategoriyalari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: *tanga, numizmat, myunskabinet, tanga tipi, avers, revers, emitent, tanga huquqi, tanga regaliyasi, legenda, nominal, hisob pul birligi, tanga to'plami, tangani sinash, ligatura, tanga buzilishi, tanga maydoni, gurt*

Ma'lumki, numizmatika tanga pullar haqidagi fandir. "Numizmatika" termini o'rta asrdan e'tiboran tanga pullar haqidagi fanning nomi sifatida ishlatila boshlanadi. Numizmatika tarixga, arxeologiyaga, etnografiyaga, siyosiy iqtisodga, san'at tarixiga, tilshunoslikda, tarixiy geografiyada, toponimikada, onomastika va boshqa sohalarga nisbatan yordamchilik funksiyalarini bajarmoqda. Numizmatika metrologiya, xronologiya, geraldika, genesologiya, sfragistika, epigrafika kabi yordamchi tarix fanlari bilan hamkorlikda ba'zi tarixiy masalalarni kengroq yoritib berishga xizmat qiladi. Numizmatikaning vazifasiga, yana qog'oz pullarni o'rganish (bonistika) va orden, medal hamda nishon (znachok)larni o'rganish (faleristika) ham kiradi.

"Numizmatika" termini ancha yosh. Bu termini o'rta asrlarda paydo bo'lgan. Bugungi kunda "numizmatika" tushunchasi tanga va medallarning kolleksiyalash hamda ularni o'rganuvchi fanni o'z ichiga oladi. Yevropada qadimgi tanga pullarga qiziqish uyg'onish davrida boshlangan. Dastavval ularga estetik nuqtai – nazardan qaralgan. Pul muomalasi yodgorliklari sifatida qaralmagan.

Jahon numizmatikasi bergen ma'lumotlarga qaraganda Rim tanga pullarini ko'plab to'plagan kishi italyan shoiri F. Petrarka bo'lgan. (1304-1374). Dastlabki tangashunoslarning izlanishlari natijasida ilk bor XIV asrda Andreo Fulvioning yunon va Rim tangalari ifodalangan "Taniqli kishilar tasviri" nomli kitobi nashr etiladi. Mashhur hukmdorlarning tasviri va ularning hayoti haqida qisqacha ma'lumot bergenligi bilan mazkur tadqiqot ko'pchiilikda qiziqish uyg'otgan. Keyinchalik, 1553-yili Giloma Rul "Dunyo yaratilgandan buyon yashagan taniqli kishilarning tangalardagi hayoti va faoliyati haqida qisqacha ma'lumot" nomli kitobini

o‘quvchilarga taqdim etadi. Bu adabiyotlar XVI asrda juda katta nufuzga ega bo‘lgan. Tangashunoslik ilmi kashshoflarini XIV-XVI asrlarda tangalardagi hukmdorlar qiyofasi va tarjimai holi qiziqitirgan bo‘lsa, XVIII asrda bu fanni ilmiy nuqtai nazardan rivojlantirish katta ahamiyat kasb etdi.

Vaqt o‘tishi bilan numizmatika predmetlarini to‘plash ishi keng urf bo‘lgan. XVI asr o‘rtalarida aristokratlarning saroylari va qasrlarida 950 ta maxsus kabinetlar bo‘lgan. (Myuns kabinet). Kolleksiyalar bilan ishslash uchun maxsus xizmatchilar yollangan. XVI asrda birinchi numizmatikaga oid yozma ishlar paydo bo‘lgan. XVII asrda va XVIII asrning boshida ham uzviy ilmiy yondoshish kuzatilmaydi. Vaqt o‘tishi va material to‘planishi bilan numizmatik bilimlar ham rivojlangan. 1749-1769-yillarda tanga-chaqa pullarning ko‘p tomli katologi Leypsigda I.F. loaxim va I.G. Byome tomonidan nashr qilingan. XIV asr mobaynida numizmatikani o‘qitish Yevropaning boshqa bir qator universitetlarida ham joriy qilingan.

Ilmiy numizmatikaga Vena universiteti arxeologи professor Y.Ekkel (1737-1798) asos soladi. U tanga pullarni tarixiy geografik prinsipi bo‘yicha tizimlashtirgan. U sakkiz jilddan iborat “Qadimgi tangalar ilmi” kitobida 70 mingdan ziyod tangalarga tartib beradi. Germaniyalik Kristian Martin Fren (1782-1851) aynan shu davrlardan boshlab Oltin O‘rda tangalarini o‘rganib, tasniflash bilan shug‘ullanadi. XX asrda numizmatikaning mavqeい o‘zgaradi. Numizmatik tadqiqotlar endilikda xususiy myunksabinetlardan davlat darajasiga ko‘tariladi. “Numizmat” tushunchasi “kolleksioner” tushunchasidan ajratiladi. Tangalar haqidagi bilimlar fan tadqiqotchilarining harakatlari tufayli olg‘a siljydi. 1986-yilda Kembridjda 13 tomlik tanga pullarni tarixi bo‘yicha jahon olimlari ishtirokida yozilayotgan to‘plamning 1-chi tomi bosmadan chiqadi.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlardan tashqari yana juda ko‘p mutaxassislarning uzoq va mashaqqatli izlanishlari tufayli tangashunoslik fani rivojlana boshladi va tangalarni tadqiq etish hozirgi kungacha davorn etib kelmoqda.

Xazina va tanga pullar topilmasi bugungi kunda maxsus tadqiqotlarning asosiy obyektlari hisoblanadi. Tangalar xazinasi numizmat uchun katta manba hisoblanadi. Bu manba orqali numizmat tanga pullar

zarb qilingan vaqtligi pul muomalasiga, savdo yo'llariga va iqtisodiy aloqalariga oid savollarga javob topishi mumkin. So'nggi yillar mobaynida numizmatika yordamchi tarix fanlari doirasidan bir munkha chetga chiqib qolgan edi, ammo o'zida yordamchi tarix fani funksiyasini saqlab qoladi. (Bu yillar mobaynida uning mustaqil tarix faniga aylanishi uchun zarur sharoitlar vujudga keladi).

Kolleksiya toplash mazkur fanning rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. G'arbiy Yevropa hukmdorlari, san'at ahli tangalarni boylik sifatida toplashlari natijasida u yerdagi davlat xazinalarida turli xil mamlakatlarning tangalari yig'ilib boradi. Tangalarni yig'ish XIV asrlardan boshlab avj olib, asta-sekin odat tusiga kirdi. Qirollar va imperatorlar kimmataho tangalarni davlat xazinasidan ajratib olib, maxsus myunskabinetlar (tangalarni saqlovchi xonalar) tashkil qilib, shu tangalarni o'rganish va ularga tartib berish uchun olimlarni jalb etganlar. Hozirgi kunda Angliya, Fransiya, Sankt-Peterburg, Vena, Berlin kabi mamlakatlar va shaharlarda jahondagi eng yirik yig'malar - kolleksiyalar mavjud.

Dunyodagi eng yirik numizmatik kolleksiyalar

Hozirgi kunda dunyoda tangalar saqlanadigan muzeylar asosan quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Milliy muzeylar
2. Arxeologik muzeylar
3. Hududiy muzeylar
4. Turli xil muzeylar

Ushbu muzeylar o'zida saqlaydigan eksponatlar soni va hajmiga qarab keyingi kategoriyalarga bo'linadi.

1. 50 ming va undan ortiq eksponatlarni o'zida saqlaydigan muzeylar.
2. 5 mingdan 10 mingtagacha eksponatlarni o'zida saqlaydigan muzeylar.
3. 10 mingdan 2 mingtagacha eksponatlarni o'zida saqlaydigan muzeylar.
4. 2 mingtadan kam eksponatlarni o'zida saqlaydigan muzeylar.

Dunyoda eng mashhur numizmatik muzeylarga quyidagilar kiradi. Bular Britaniya muzeyi, Parij (Fransiya) Milliy kutubxonasining qadimiyat va medallar bo'limi, Berlin (Germaniya) myunskabineti, Vena myunskabineti, Amerika numizmatlar jamiyatasi muzeyi, Ermitaj (Rossiya) Davlat numizmatika jamg'armasi muzeyi, Moskva (Rossiya) Davlat

numizmatika jamg‘armasi muzeyi. Ularning qisqacha tarixiga to‘xtalib o’tamiz.

Britaniya muzeyi

Britaniya muzeyining qoshidagi tanga va medallar bo‘limi, 1861-yili tashkil etilgan. Hozirgi kunda muzeysda 650 mingdan ziyod tanga eksponatlar saqlanmoqda. Shulardan 85 mingdan ortiq tanga eksponatlari antik davriga tegishli. Qolgan eksponatlar Yevropa va Sharq tangalarini tashkil etadi. Muzey har doim tanga eksponatlarini nashr qilib boradi. 1841-yildan boshlab hozirgacha tangalarini 100 tomlik katalogini nashrini chiqargan.

Parij Milliy kutubxonasining qadimiyat va medallar

bo‘limi

Muzeyning tashkil topishida qirol Lyudovig XIV ning tangalar jamg‘armasi asos bo‘lgan. Muzeyning asosiy eksponatlarini rim va o‘rtalar davri Yevropa tangalarini tashkil etadi. XIX asrdan boshlab muzey “Monne” nomli 15 tomlik tangalar katalogini nashr qilgan.

Berlin myunskabineti

Myunskabinet 1868-yili tashkil topgan. Uning kolleksiyasida 153 mingdan ziyod antik davriga oid, 155 mingtadan ortiq o‘rtalar davri Yevropa va 43 mingtagacha Sharq tangalari joy olgan. Ikkinchisi jahon urushi davrida muzey kolleksiyasining bir qismi yo‘qolgan.

Vena myunskabineti

Yevropada ilk tangalar Vena myunskabinetida yig‘ilgan. Vena myunskabinetining asos solinishida Gabsburg imperatorlar uyining yig‘ma tangalari sabab bo‘lgan. Myunskabinetda 1663-yilda 16 ming tanga kolleksiyasi yig‘ilgan. Hozirgi kunda 500 mingdan ortiq eksponatlari mavjud. Vena myunskabineti o‘zining tanga kolletsiyasi jihatdan Britaniya muzeyidan oldin turadi. XVIII asrning oxirgi choragida myunskabinetga I.Ekkel rahbarlik qilgan. Myunskabinetning eng qimmatli va boy kolleksiyalari sirasiga I.Ekkel tomonidan yig‘ilgan antik davri tangalar hisoblanadi.

Amerika (Nyu-York) numizmatlar jamiyatasi muzeyi

1858-yili tashkil topgan. Hadya qilingan va to‘plangan tangalar yig‘ilmasi Nyu-York numizmatika muzeyini asos solinishiga sabab bo‘lgan. Muzey 18 mingdan ortiq Xitoy tangalarini saqlanganligi bilan

mashhur. Muzeyda hozirgi kunda 500 mingdan ortiq tanga kolleksiyalari mayjud. Muzeining tanga kolleksiyalari uning "*Numismatik notes and monographs*", "*Numismatik literature*" nomli davriy jurnallarida chop etiladi.

Ermitaj Davlat numizmatika jamg'armasi muzeyi

1787-yili tashkil topgan. Dastlabki tangalar kolleksiyasi 15 mingtadan iborat bo'lgan. Hozirgi kunda muzey kolleksiyasida 1 mln 100 ming tangalar kolleksiyasi yig'ilgan. Shulardan 250 ming nusxasi rus tangalari, 230 mingdan ortiq Sharq tangalari, 120 mingga yaqin antik davri tangalari o'rinn tutgan.

Moskva Davlat numizmatika jamg'armasi muzeyi

Muzeysiga 1883-yili asos solingan. Taniqli rus numizmati A.V. Oreshnikov ko'p yillar davomida muzeysiga rahbarlik qilgan. Muzeyning asosiy kolleksiyasini A.D. Chertkovning tangalar yig'masi tashkil etadi. Hozirgacha muzeyning Rus va SHarq tangalari bo'limida 1 mln 60 ming tanga o'rinn topgan.

Numizmatika so'zi - numisma lotin tilida - moneta (tanga), nomisma - yunon tilida moneta (tanga). Tanga - bu belgilangan formadagi metall quymasi. U o'zining og'irligiga, qiymatiga, sifatiy tarkibiga ega bo'ladi va qonuniy muomala vositasi hisoblanadi. Bu termin o'rta asrdan e'tiboran ishlatali boshlandi. Tanga pullar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarining paydo bo'lishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Ular o'zlarini numizmatlar deb atay boshladilar.

Shakllangan fan sifatida numizmatika o'zining metodikasi va terminologiyasiga ega. Numizmatlar tangalardagi rasmlarni (tip), yozuvlarni (izohlarni), ularning og'irligi, o'lchami, metall sifatini, kim tomonidan zarb etilganligi, qachon va qaerda muomalada bo'lganligi va hokazolarni har tomonlama o'rganadilar. Tanga - bu belgilangan formadagi metall quymasi. U o'zining og'irligiga, qiymatiga, sifatiy tarkibiga ega bo'ladi va qonuniy muomala vositasi hisoblanadi.

Tanga tipi – tasvir elementlarining barqoror kompozitsiyasi, unga tanganing old va orqa tomonidagi yozuvlar ham kiradi.

Emitent – Tanga zerb etish huquqiga ega bo'lgan shaxs, xo'jayin, sohib tangani o'zining nomidan chiqaradi. O'rta asrlarda bunday huquqga - hukmdor, imperator, qiro, erkin shahar ega bo'lgan.

Tanga huquqi – zarb etish huquqi – davlatning suveren huquqlaridan biridir. Bu huquq imtiyoz shaklida taqdim qilinishi, sotilishi, ijaraga berilishi, garovga qo'yilishi mumkin.

Tanga regaliyasi – tanga zarb qilish huquqiga ega bo'lganlarning imtiyoz sifatida zarb qilishdan foyda ko'rishi. Ba'zan tanga huquqi bilan tenglashgan holatda bo'ladi.

Legenda – tangadagi yozuv. Odatda gorizontal yoki aylana shaklida bir yoki bir necha qatorдан iborat bo'ladi. Ayrim hollarda vertikal va butsimon shaklida bo'ladi. Ba'zan esa tasvirning o'ziga yozildi. Tanga zarb qilingan vaqt ham tanga yozuviga kiradi.

Nominal – tanga qiymati. Numizmatik adabiyotlarda ma'lum qiymatga ega bo'lgan tangani bildiradi.

Tanga to'plami - ma'lum metall og'irligiga ega bo'lgan tangalar miqdori.

Tangani sinash – (**proba monetri**) - qimmatbaho metall massasining tangani umumiyy massasiga nisbati.

Tanganing buzilishi – tanga tarkibida qimmatbaho metallini tananining og'irligini kamaytirgan holda qisqartirish.

Ligatura – oltin va kumush quymalarga noqimmatbaho metallarning aralashtirilishi.

Tanganing maydoni – tanganing yozuvsular va tasvirlar bilan band bo'limgan old va orqa tomonining yuzasi.

Tanganing obrezi(cheti, qirg'og'i) – gorizontal chiziq. Tanganing quyi qismini tananining asosiy maydonidan ajratib turadi.

Pullar, qanday ko'rinishga ega bo'lishdan qat'iy nazar, qiymat o'Ichovi, muomala vositasi, xazina toplash, to'lov vositasi, jahon puli funksiyalarini bajaradi.

Birinchi pullar qachon paydo bo'lgan?

Qadimshunos olimlar yer kurrasidagi dastlabki savdo muomalasi ibtidoiy jamoa tuzumining tosh asridan boshlanganligini isbotlaydilar. Qabila va jamoalardagi mehnat taqsimoti moddiy va ehtiyoj buyumlarini ayriboshlashning rivojlanishida asosiy omil bo'lgan edi. Ana shu tovar ayriboshlash natijasida ma'lum miqdorda mol ortib qolgan. U boshqa mollar narxining ekvivalentiga aylangan. Ana shu asnoda birinchi pullar paydo bo'la boshladi. Inson o'z mehnatining mahsulotlarini ayriboshlashi

natijasida savdo-sotiqning ilk va sodda turini vujudga keltirdi: u tanqis ashyolarni pul o‘rnida ayrbosh qila boshladi. Bunday tovar-pul muomalalari mintaqalarda turli ko‘rinishda amalga oshirilgan. Masalan, Osiyo va Afrikaning ko‘pgina qadimiy xalqlari pulning eng sodda formasi - chig‘anoqlardan uzoq vaqt mobaynida foydalanib kelishdi. Yaponiya, Xitoy va Hindiston mamlakatlarida ham chig‘anoqlar pul sifatida ishlatalnigan. Melaneziyada “cho‘chqa pullari” deb ataladigan pullar bo‘igan edi. Bunday oddiy usuldagi pullar chig‘anoq, munchoq, it tishlari va cho‘chqa dumlarining boylamidan iborat bo‘lib, ularga xo‘jalik mollari sotib olingan, kelinlar uchun qalin ham to‘langan. Hindistonda dur pul sifatida ishlatalgan bo‘lsa, Afrikaning ba’zi qabilalarida xurmo mevasi pul vazifasini o‘tagan.

Ular ayrim etatlarda qadimdan, ya’ni ibridoiy jamaa tuzumi davridan milodiy XX asrgacha savdo vositasi bo‘lib kelgan. Masalan, kauri chig‘anoqlari qadimiy Xitoy, Yaponiya, Hindiston shaharlarida ancha vaqtgacha muomalada bo‘igan va qadrlangan. Ular eramizning VI-VIII asrlarida Germaniyada, IX asrda Shvetsiyada va XVI asrda Riga shahrida ishlatalganligi, Gvineyada ham kauri tasviri tushirilgan pullar mavjud bo‘iganligi aniqlangan. Umuman olganda, kauri va shunga o‘xhash ko‘pgina narsalarni inson o‘z quli bilan yaratishga intilgan va shuning uchun ayrim arxeologik qazilma ishlarida ma’dan yoki toshdan yasalgan taqlidiy kaurilarni ham uchratish mumkin. Bundan tashqari, insonlar orasida jonlik - qoramol yoki xarsanglar, keyinchalik itlarning tishi, cho‘chqa dumi, ma’dan parchasi singari narsalar ham savdo vositasi sifatida qo‘llanilgan. Inson o‘zi uchun qulay pul shaklini ixtiro etguniga qadar mazkur “pul”larni tabiatdan olib, savdo vositasi sifatida ishlatib turgan. Vaqtি kelib, inson ma’dandan ishlangan pul - parchaning yengillagini va o‘z yoniда olib yurishga qulayligini hisobga olib, sof ma’danli quymalarni ayrbosh qilishga o‘tadi. Bunday pul birligi Kadimiy Mesopotamiya va Misrda paydo bo‘lib, shu davrdan e’tiboran inson hayotiga “tanga” holatida kirib keldi. Ammo bu quymalarni insonlar qalbakilashtira boshlaydilar.

Qattiq jazo choralariga qaramay, bunday hol davom etaverGANI sababli, hukmdorlar o‘z quymalarini muhrlashga, ya’ni ularda biror tasvirni yoki tug‘rolar - gerblarni ifodalashga odatlanardilarki, bu bilan quymalar

haqiqiyligi davlat tomonidan kafolatlanadigan bo'ldi. Tovar pullar, xususan hayvonlarning terisi, ishlab chiqarish qurollari va boshqa ashyoiar hozirgi pullar darajasida muomalada bo'lgan. Ko'pgina xalqlar tovarlarni qoramollar bilan baholashdan keyin metall pullarga o'tganlar. Ungacha tovarlarning qiymati ho'kiz, qoramol yoki qo'yalar bilan belgilangan.

Ayriboshlash har doim va turli sharoitda qiymati birdek o'zgarmaydigan, qo'llash oson bo'lgan baho o'ichovini taqozo qilardi. Mana shunday savdo shartlariga yangidan paydo bo'lgan metall pul javob bera boshladidi; bu o'z navbatida savdo muomalasida mayjud bo'lgan pulning barcha mayjud formalarini siqib chiqardi. Metall pullar qismlarga bo'linishi, qimmat yombini arzon qilish mumkinligi jihatidan ham ahamiyatli edi. Tilla va kumushdan tayyorlangan pullar esa eng qulay va qiymatli pul hisoblanardi.

Kishilar asta-sekin ma'lum og'irlidagi yombilar tayyorlay boshladilar. Lekin metall pullarda hali aldanish imkoniyati yashirinib yotardi. Chunki, kishilar mis va qo'rg'oshin singari arzon metallarni oltin va kumush parchalarga aralashtirar edilar. Hukumat bu firibgarliklarga chek qo'yish maqsadida o'zi zarb qilgan metall pullarga muhr bosib chiqara boshladi.

Birinchi tanga qayerda zarb qilinganligi to'g'risida antiq olimlarning ham fikri turlicha. Chunonchi, Gerodot va Ksenofotlarning ma'lumotiga ko'ra, birinchi oltin hamda kumush tangalar eramizdan oldingi VII asrda Kichik Osiyoning Lidiya davlatida zarb qilingan. Keyinchalik Qora dengiz bo'yidagi ko'pgina grek mamlakatlari va davlatlaridagi yirik shaharlarda tanga pullar zarb etishgan. Demak, er.avv. VII asrda tangalar O'rta yer dengizi rayonlarida paydo bo'lgan. Lidiya (Kichik Osiyo – davlati) va Grek oroli Egina bu yerda chiqarilgan tanga pullarning vatani hisoblanadi. Keyinchalik u butun Elladaga va uning koloniyasi Eron, Italiyaga tarqaldi.

Kadimgi tangalar ikki xil: 1) quyma; 2) zarblangan uslubda tayyorlangan. Quyma tangalar maxsus shakl va tasvir o'yilgan qolip - idishlarga ma'dan quyilib tayyorlangan. Ikkinci yo'sinda temir yoki bronzadan ishlangan muhr - shtempelda maxsus asbobda) tangalar ifodasi tayyorlanib, kerakli metall quymasi ustiga zarblangan. Birinchi uslubda tanga sathidagi tasvir noaniq, bo'lganligidan tezda o'chib ketishi sababli miloddan avvalgi VII asrga kelib zarblangan tangalar keng miqyosda